



**XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA XALQ SUDYA(QOZILAR)
FAOLIYATIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR**

Karimov Kaxramon Sadiqovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6642605>

Annotatsiya. Maqolada qozilar va ularning faoliyati oid masalalar Turkiston general-gubernatorligi mahalliy boshqaruvi qonunlarida aks etishi, qozilikka saylash hamda tayinlanish tartiblari, fuqarolar murojaati va uning ko'rib chiqish tartiblari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston general-gubernatorligi, ijro etish, hukm chiqarish, imperiya, qonun, da'vogar, nizom, mahalliy boshqaruv.

Аннотация. В статье говорилось о том, что судьи и вопросы их деятельности отражаются в законах местного самоуправления Туркестанского генерал-губернаторства, о порядке избрания и назначения судей, об обращении граждан и порядке его рассмотрения.

Ключевые слова: генерал-губернатор Туркестана, казни, правящий, в совершении, права, истцу, регулирование, местное управление.

Annotation. The article addresses the issues related to the veterans and their activities reflected in the laws of the local government of the Turkestan governorate, the election and appointment procedures of the veterans, the appeal of citizens and the procedures for its consideration.

Keywords: Governor-general of Turkestan, execution, ruling, emperity, law, plaintiff, regulation, local management.

Jahon miqyosida huquq tarixi, huquqiy ta'lomitlarda odil sudlov, sud ishining shakllanish dinamikasi va bosqichlari, huquqiy me'yorlar legalizasiyasiga doir qo'lyozma manba va arxiv hujjatlarini o'rghanish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. 2010 yil 25 iyunda Kiyevda qabul qilingan «Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlarida sud hokimiyati mustaqilligi masalalariga bag'ishlangan Kiyev konferensiyasi» tavsiyalari[24]da ham sudlar tarixini o'rghanish, jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda xalq sudlari faoliyati tarixini o'rghanish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Turkiston o'lkasida tarixiy jarayonda tarixan shakllangan islom madaniyati va huquqiy qadriyatlar jamiyat hayotining turli sohalari, jumladan, sud-huquq, til, xalq ta'limi, din, axloq va ijtimoiy hayotning boshqa bir qator sohalaridagi an'analarga, mahalliy shart-sharoitlarga muvofiq tartibda kishilarning turmush tarziga kirib bordi. Bu jarayonlar bevosita xalq sudyalari – qozilar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ijro etish, hukm chiqarish vakolatiga ega vazifalarni bajargan hamda musulmon davlatlarida amaldagi hukmdorlar tomonidan tayinlanib, shariat qoidalari asosida zamonaviy shaklda aytilganda sud vazifasini bajaruvchi, sudya, shar'iy mahkama raisi hisoblangan qozilar barcha davrlarda mahalliy boshqaruv tizimida asosiy o'rin egallagan. Shikoyatlar bilan shug'ullanuvchi bu idora ya'ni mahkamaga hukmdor tomonidan tayinlagan obro'li kishi boshchilik qilardi. Bu an'analar Rossiya imperiyasi bosqinigacha Turkiston o'lkasida ham saqlanib qoldi.



Qozi har qanday mushkulotda ham lafzida nafs aralashmaligi lozim bo'lgan[1, 150]. Shoxona libos kiygan qozikalon oldiga da'vogar kelganida din va shariat yuzasidan haqqoniy echim berishi aytilgan[2, 4-4b].

Hatto ba'zi qozilar jiddiy tarzda ilm bilan shug'ullangan. Masalan, Buxoroda amir Olimxon davrida Qozi Mirzo Hikmatulloh qozilik faoliyatidan tashqari, toliblarga ilm berish hamda undan bo'sh vaqtida esa umri davomida 300 ta kitob yozgan[2, 121b]. Ba'zan imomlik vazifani ham bajargan. Va bu amchayin manfaatli bo'lgan. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 29-apreldagi 6-sonida qo'qonlik imomning "to'y marosimlari orqasidan yili 500 so'm miqdorida daromat bor" ekanligi keltirilgan[19].

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlar o'z davlatining tarkibiga qo'shib olinib, 1886 yilgi Nizomning 3-bobi 13-moddasida ko'rsatilgan shaklda har bir mustamlaka hududda bir harbiy gubernator va bir viloyat boshqarma mahkamasi bo'lishi belgilangan[3, 3].

Bosib olingan hududlar qishloq, ovul, volost, uezd, viloyat ma'muriy birliklarga ajratilib[16, 287], 1867 yilgi «Nizom» bo'yicha oqsoqol, ovul va volost boshliqlari saylangan. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi «Nizom»ning 223- moddasiga muvofiq, qozilik va biylik mansabiga xalq ichida hurmati va mavqeい bor, jinoyat qilmagan, jarimaga tortilmagan, tergov yoki hukm ostida bo'limgan va 25 yoshdan kichik bo'limgan har bir volost fuqarosi saylanishi mumkinligi ko'rsatilgan[3, 29].

Mahalliy boshqaruv tizimida xalq sudyalari saylov yo'li bilan[12, 11] o'lkani boshqarish to'g'risidagi «Nizom»ning 221- moddasiga muvofiq, uch yil muddatga tayinlanadigan bo'ldi. Saylov o'tkazi joyi va vaqtini viloyat boshqarmasi mutasaddilari tomonidan belgilangan [3, 28].

Keyingi yillarda saylov jarayoni bo'yicha Turkiston general-gubernatorligining 1910 yildagi 16243-sonli farmoniga muvofiq, Sirdaryo viloyatida 1911-1913 yillar uchun uch yillik muddatga saylovlar o'tkazish to'g'risida maxsus farmon chiqarilgan. Agar muddatidan avval bo'sh o'rinalar (vokant) bo'lsa yangi saylov o'tkazilgan[4, 126].

Agar saylov yakunida saylangan qozi general-gubernatorga ma'qul kelmasa, saylov qaytadan o'tkazilgan[3, 29]. Yangi saylov tartiblari mahalliy davriy matbuotda e'lon qilingan[16].

Turkiston general-gubernatorining 1901-yil 15-dekabrdagi 221-son buyrug'iiga asosan[7, 50], xalq sudyalari saylov o'tkazilishi natijasida yuzaga kelgan noroziliklarni bartaraf etish uchun 1901-yil 10-sentabrga qadar Toshkent, Farg'ona Sirdaryo va Samarqand viloyatlari, Toshkent, Chimkent, Avliyoota uezdlari kuchaytirilgan mudofaa kuchlari jo'natilgan. Ushbu buyruq mazmuniga ko'ra, amaldagi mahalliy idora mansabdar shaxslari vaqtincha egallab turgan lavozimidan chetlatilishiga urg'u berilgan. Ushbu hujjatda uezd boshliqlari, uchastka pristavlari uchun qo'shimcha haq to'lanishi bo'yicha ko'rsatma berilganligi ham e'tiborga molik. Har bir uezd boshlig'iiga jamoa mulkularini hudud aholisini bilan kelishib, so'ngra bo'lib berish vakolati ham berilgan[5, 46-47].

Turkiston general-gubernatori kanslerining Sirdaryo viloyatining harbiy hokimiga 1905-yil 3/7-iyun sanasida 5535-sonli «Mahalliy amaldorlar saylovlarining noqonuniy o'tkazilganligi haqidagi jamoatchilik shikoyatlariga nisbatan» yuborgan xatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin.

Oblast (viloyat) gubernatorlari qishloq va ovul oqsoqollari lavozimlarini to'ldirishda joriy 1905 yildan boshlab saylovlarni qayta tiklash zarurligini anglagan holda, o'lka ma'muriyati tomonidan tuman ma'muriyati saylovlarni ishlab chiqarish tartibi va ushbu mavzu bo'yicha



amaldagi qonunlar bilan yetarlicha tanish bo'lganligiga ishonch hosil qilingandan so'ng, natijalar qabul qilinib olingan. Turkiston general-gubernatoriligidagi saylovlari to'g'risida shikoyatlar juda ko'p kelib tushgani o'ziga e'tiborni jalb qilgan. Mustamlaka ma'muriyati siyosatiga nisbatan aholida norozilik mavjud bo'lsa, 1888-yil 14-sentyabrdagi «Nizom» 9-moddasiga muvofiq, avvalo uezd boshliqlariga ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilishlari mumkin bo'lgan[6, 15]. Mustamlaka mansabdorlariga fuqarolarning azrlari etib borishi quyi boshqaruv mansabdolari xatosi hisoblangan va bu xalq majlisida ko'rilib[6, 51]. Kelib tushgan shikoyatlar bo'yicha maxsus ish ochilgan [8, 5].

O'z navbatida, mansabdorlar aholi vakillari va ularning oila-a'zolariga noto'g'ri ishlar qilmasligi, yomon kishilarga qo'shilmasligi ko'pchilik yig'ilgan joylarda, masjid va bozorlarda aytilishi qonuniylashtirilgan[6, 18]. Bundan tashqari, mahalliy davriy matbuotda din masalalari[16], hajga borish tartiblari[20], nikoh tartiblari[21], to'y marosimlarni o'tkatish tavsiyalari[19] kabi sharait masalalariga doir ma'lumotlar berib borilgan.

Hatto shikoyatlarni maxsus xodimlarni yuborish orqali tekshirishga majbur bo'lingan. Deyarli barcha shikoyatlarni Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan saylovlari bo'yicha jarayonlar maxsus xodimlar tomonidan tekshirilgan[9, 10]. Saylov jarayonlari taftish qilib borgan[6, 54]. Mahalliy aholi tomonidan bildirilgan shikoyatlar bo'yicha o'tkazilgan taftishlar ommaga yetkazidib turilgan[23].

Turkiston viloyatida fuqarolarni so'roq qilish va hukm chiqarish o'z hududining qozi va biylari tomonidan amalga oshirilgan[6, 26]. Turkiston viloyatiga kelgan boshqa fuqarlar(hamsoya)lar ham da'vo ishlari bo'yicha shu hudud qozisiga murojaat qilishlari mumkin edi[6, 26]. O'z navbatida, xalq sudyalari ko'rish vakolati doirasidan tashqari ishlarni mirovoy sudi[6, 27] yoki viloyat sudi tomonidan ko'rib chiqilgan[10, 10].

1886-yilgi «Nizom»da esa 3-bob 208-254-moddalarni o'z ichiga olgan alohida «Qozilar va biylarning so'roq va hukm qilmoqlari xususida» nomli fasl kiritilgan[6, 22].

Barcha fuqarolik ishlari qozi va biylar tomonidan o'rganilib, 1886-yilgi Nizomning 141-142-moddalarida keltirilgan holatlardan tashqari, ya'ni rus ma'muriyatiga qarshi jinoyat(masalan, temiryo'lni bo'zish, telegraf simlarini uzish va.h.k) ishlarni ko'rib chiqqan[6, 17-18].

Turkiston general-gubernatorining 1902 yildagi 28-sonli «Nizom»(dastur ul-amal)ida qozilar so'roq uchun aybdor yoki aybsizligidan qat'iy nazar chaqiruv qog'ozi (povetska) yuborishi kerak bo'lgan[4, 94]. Bundan tashqari jamoat yig'ilishlarida xalq muhokamasiga qo'yilgan masalalar, odatda ko'p hollarda o'z yechimini topgan[4, 41].

Vaqf mulklari nazorati XX asr boshida ham davom etdi hamda u qozilar nazoratidan chetda qolmadi[5, 45]. 1886-yildagi «Nizom»ning 4-fasl 1-bob 285-moddasiga muvofiq, poshdo xazinasini uchun imorat va imoratsiz(noturar joy) mulklardan soliq olinigi ammo xiroj va tanob solig'i undirilmasligi ko'rsatib o'tilgan[3, 16].

Turkiston o'lkasidagi vaqf yerlarining asosiy qismi Farg'ona viloyatida bo'lgan. «Nizom»ning 4-bob 6- moddasiga muvofiq[3, 26], 1887-yilda xon va amir muhrlari bo'lgan vaqfnomalar va vasiqalarni viloyat boshqarmalariga tekshirish uchun Farg'ona viloyatida 1733 ta, Samarqand viloyatida 107 ta, Toshkent uezdida 361 ta xon va amir muhrlari bo'lgan vaqfnomalarini viloyat boshqarmalariga tekshirish uchun topshirdilar. Bu vaqfnomalar egalari-masjid, madrasa va boshqa diniy tashkilotlar yer solig'i to'lashdan ozod bo'lishi mumkin edi. Xon va amirlar muhri yo'q vaqfnoma egalari davlat xazinasiga yer solig'i to'lashi shart edi. Bunday vaqfnomalar faqat



Farg'ona viloyati bo'yicha 4177 ta, Samarqand viloyatida 1651 ta, Toshkent uezdida 36 ta edi[11, 41].

Qo'qon xonligidagi mavjud qozilik mahkamalaridagi mansabdarlar va ularning faoliyati, qozikalonlik mansabiga tayinlanish marosimi ham mavjud bo'lgan. Ma'lumki, XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida iqtisodiy-siyosiy jihatdan ancha mavqeい oshgan edi[12, 159]. Hatto, harbiy holatlarda ham ular asosiy vazifalar ishonib topshirilgan. Masalan, 1852 yilda Xudoyorxon yig'ma qo'shin bilan qipchoqlarga qarshi borib birinchi jangda mag'lub bo'ladi, o'zi qamalda qoladi. Qipchoqlar qo'shining bir qismi Qo'qonga kelib, shaharga bostirib kirmoqchi bo'ladilar. Shunda shahar qozisi Muhammadnazar Inoq dodxoh va Xoniquli sarkorlar shahar mudofaasini tashkil qiladilar[13, 33]. Bundan tashqari, Toshkentning Sebzor mahallasidan Said Muhidin xoji Qoriev, Besh yog' ochdan Mir Maxdixon Said Boqixonovlar kabi ibratli qozilar taqdirlangan[18].

Bog'chasaroyda mahalliy amaldor Mirza Rizoxonning Rossiya imperatori tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlangan bo'lsa[22], 1865-yilda rus va turk tillarida «hukumatiga sodiqligi uchun» Turkiston viloyati Toshkent shayxul-islomi (ismi nomlanmagan) mukofotlanishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud[15, 177].

Mahalliy idoralarning mansabdor shaxslari saylov yo'li orqali tayinlash jarayonida mustamlaka manfaatlariga xizmat qiluvchi tartiblar asosida amalga oshirilgan.

Turkiston o'lkasi hududlariga madaniy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlariga tavsif berildi. O'lka xalqlaritarixining birligi, yaxlitligini inkor etmasdan, balki yaxlit tizim sifatida bir-biri bilan taqqoslandi. Bu esa ilmiy qiyoslash usulini tarixiy tadqiqotlarga qo'llashni taqozo etdi. Natijada tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunish, ularning xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, arablar istilosidan to yangi davr tarixi-Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidigacha bo'lgan davrda oldingi davlat boshqaruvi an'analari jumladan, qozilik lavozimi saqlab qolindi va davom ettirildi.

Bu esa davlatchilik markazi yoki davlatni o'zida mujassam etuvchi shaxs xoqon, amir, xon va ularning hukmron sulolalari, o'ng yoki chap tomonlarida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlar orasida hamisha qozilik lavozimini egallagan amaldor mavjudligini ta'minladi.

Turkiston general-gubernatorligida o'tkazilgan xalq qozilari saylovi jarayonida qator muammoli masalalar kuzatilgan. Mahalliy idoralarning mansabdor shaxslari saylov yo'li orqali tayinlash jarayonida mustamlaka manfaatlariga xizmat qiluvchi tartiblar asosida amalga oshirilgan.

References

1. «Fatvoyi oliy». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 7177. – 263 v.
 2. Sharifjon Mahdum sadr Ziyo. Tarjima. «Ahvole qozi Abdushukur va boshqalar». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 1304. – V. 121b.
 3. «Qonun». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – 30 v.
 4. Y.S.Putinsov. «Kalendar axboroti». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 748. – 126 v.
- فتاوی علیه
- ترجمیه. احوال قاضی عبد شکر و باشقة لار. شریف جان مخدوم ضیا
- قانون
- کلیندر اخباراتی.



5. «Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabit va rabt qilmoq ya'ni boshqarmog'ining nizomi». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 9542. – 232 v.

تورکستان ولايتي ده غى خلق لارنى ضبىت و ربط قىلماق يعنى باشقارماقى نىنك ئظامى

6. «Dastur ul-amal». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 571. – 54 v.

دستور العمل.

7. Ravshanbek, J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 304-309.

8. O'G'Lи, J. R. M. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. Ta'lim fidoyilar, 25(5), 93-97.

9. Anvaronva, S. N., & Kizi, M. K. K. (2022). Developing the Intellectual Power of Preschool Children Through Developing Technologies. Eurasian Research Bulletin, 7, 30-33.

10. СУЛТОНОВА, Н. А., ЮЛДАШЕВА, М. Э., & УРИНБАЕВ, Н. Н. У. (2015). СОВРЕМЕННЫЙ УРОК В СИСТЕМЕ ТРАДИЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ИХ РАЗВИВАЮЩИЕ ВОЖМОЖНОСТИ. In Молодежь и XXI век-2015 (pp. 359-362).

11. Xalkuzieva, D. B., & Muxammadjonova, X. (2021). Maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. Scientific progress, 1(6), 704-707.

12. Bahodirovna, K. D. (2022). STUDY OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 57-60.

13. Bahodirovna, K. D. (2021). DEVELOPMENT OF HUMANITY AND SOCIAL QUALITY AND ABILITIES OF THE INDIVIDUAL IN EDUCATION. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(05), 151-155.

14. Xalkuziyeva, D. B. (2021). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALASH. Scientific progress, 2(1), 510-512.

15. Mirzamaxmudovna, X. J. N. (2022). THE IMPORTANCE OF VISUAL ACTIVITY IN THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 94-98.

16. Mirzamaxmudovna, K. N. (2021). Spiritual And Ethical And Socialization Of Pupils Of Preschool Educational Institutions Psychological-volitional Aspects. JournalNX, 7(06), 165-168.

17. Isaxanova, M. E., Xujanazarova, N. M., & Irmatova, M. I. MODERNIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION.

18. Isaxanova, M. E., Xujanazarova, N. M., & Irmatova, M. I. MODERNIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(3), 120-124.

19. Устаджалилова, Х., Хайдарова, М., & Олимова, Д. (2020). РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКОГО И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МОТИВАЦИИ ИЗУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКИ.



In Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 17-19).

20. Султанов, Д., & Устаджалилова, Х. А. (2014). Особенности развития геометрических умений и навыков учащихся при решении задач методом геометрических преобразований. In Теория и практика современных гуманитарных и естественных наук (pp. 253-259).
21. Alisherovich, A. G. O. (2022). REGIONAL ANALYSIS OF THE USE OF RECREATIONAL RESOURCES OF FERGANA REGION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1021-1025.
22. Mamayusupova, I. K. (2020). ON THE PSYCHOLOGICAL CRITERIA AND FACTORS OF ORIGIN OF CONFLICTS THAT ARISE BETWEEN YOUNG PEOPLE. Theoretical & Applied Science, (2), 630-633.
23. Khamidovna, M. I. (2021). Different ways of Resolving and Managing Conflicts. Middle European Scientific Bulletin, 17, 204-207.
24. Khamidovna, M. I., & Khudayberganov, O. (2022). The Psychology of Adolescent Conflicts in Society. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(1), 29-33.
25. Khamidovna, M. I. (2021). Organizational and socio-psychological mechanisms for making managerial decisions in conflict situations between adolescents.
26. Jorayev, N. S. (2021, July). QUALITY LEARNING PROCESS-AS A MECHANICAL SUM OF TEACHING AND LEARNING PROCESSES. In Euro-Asia Conferences (pp. 57-59).
27. Sadullayevich, J. N. (2021). Improving psychological technologies for the development of professional reflection in future teachers. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 229-232.
28. Джураева, М. А. (2022, May). ПРИЁМЫ КОНТРОЛЯ УРОВНЯ ЗНАНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 28-32).
29. Abdukakhorovna, Z. M. (2022). Lexical Polysemy of the Russian Language. Middle European Scientific Bulletin, 22, 77-81.
30. Muminova, G. B. Senior scientific researcher, TSEU Social Media as a tool of Innovative Marketing: The case of Uzbekistan.
31. Muqimovna, G. A. D., & Baxodirovna, M. G. (2022). TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN PRESCHOOL ADULTS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 221-227.